

GINKGO BILOBA - TABIAT DURDONASI

Akbarova Muxayyo Xusanovna  
Sodiqjonova Mashhura Voxidjon qizi  
*Farg`ona davlat universiteti*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada relik t o`simlik Ginkgo biloba, uning biomorfologik va bioekologik xususiyatlari haqida ma`lumotlar berilgan.*

**Kalit so`zlar.** *Ginkgo biloba, relik t, mezozoy erasi, manzarali daraxt, dixotomik.*

**Абстракт.** *В статье представлены сведения о реликтовом растении Гинкго двулопастный, его биоморфологических и биоэкологических особенностях.*

**Ключевые слова.** *Гинкго двулопастный, реликт, мезозойская эпоха, декоративное дерево, дихотомическое.*

**Annotation.** *The article presents information about the relict plant Ginkgo biloba, its biomorphological and bioecological features.*

**Keywords.** *Ginkgo biloba, relict, Mesozoic era, ornamental tree, dichotomous.*

Ginkgo biloba monopodial tipda shoxlanadigan siyrak shox-shabbali daraxt, bo`yi 30-40 metr, diametri 1,5 - 4,5 metr, qobigi oqish, kulrang tusda. Novdasi uzun, shoxchalari kalta, oqish kulrang. Kurtagi konussimon shaklda, qo`ngir rangda. Barglari uzun bandli, barg plastinkasi yelpigichsimon, eni 5-10 sm, cheti chuqur uyiqli, 2-3 bo`lmali, qalin po`stli, tuksiz, och yashil rangda. Barg bandining tomirlari dixotomik shoxlangan, barcha novdada spiralsimon, shoxda esa 2-5 tadan to`p-to`p bo`lib joylashadi. Poyasi va ildizi anatomik tuzilishi jihatidan ninabarglilarinikiga o`xshaydi.

Ginkgo ikki uyli o`simlik. Mikrosporachi barglari isirg`asimon qubba bo`lib, qisqargan novdachalaridagi barglar qo`ltig`ida hosil bo`ladi. Har qaysi sporachi bargda ko`pincha ancha yirikroq, judda ko`p mikrosporali ikkita mikrosporangiy (changdon) bo`ladi. Makrosporachi bargi uzun bandli bo`lib, oddiy barglarga o`xshaydi, uchida plastinka o`rniga ikkita mikrosporangiy (urug`kurtak) hosil bo`ladi. Urug`kurtak changlanayotganda chang hosil qiluvchi hujayra chang kamerasiga o`sib kirib, kalta chang nayzasiga aylanadi. Shu vaqtda naychada anteridiy hujayrasidan ko`p xivchinli ikkita yirik spermatozoid paydo bo`ladi va ulardan biri tuxum hujayra bilan qo`shiladi. Urug`kurtagining tuzilishi va tuxum hujayrasining urug`lanishi jihatidan ginkgo sagovniklarga va ularning



qadimgisi boʻlgan urugʻli paporotniklarga oʻxshab ketadi. Urugʻi yetilganda pistaga oʻxshash, qattiq boʻlib, boʻyi 3 sm, eni 1,5 sm ga etadi. U ikki pallali boʻlib, endosperma kraxmal va yogʻ moddalariga boydir. Oziq-ovqat sifatida urugʻining ahamiyati kattadir. Ginkgo biloba qaragʻaytoifa oʻsimliklar boʻlimining ginkgodoshlar oilasiga mansub bizgacha yetib kelgan hozirgi yagona vakili. U mezozoy erasida yer yuzasida keng tarqalgan boʻlib, muz davrining boshlanishi bilan iqlimning keskin oʻzgarishi natijasida deyarli hamma joyda halok boʻlgan. Tabiiy sharoitda ginkgo faqat Sharqiy Xitoyning Tyan-Mushan togʻida ozroq maydonda saqlanib qolgan. Ginkgo soʻzi yapon tilidan olingan boʻlib, „kumushrang oʻrik“ yoki „kumushrang meva“ degan maʼnoni anglatadi. Yaponiya, Xitoy, Koreyada muqaddas daraxt sifatida ziyoratgoh joylarda, xiyobonlarda oʻstirilgan. 1730- yillarda u Gʻarbiy Yevropaga, 1780- yillardan keyin esa Shimoliy Amerikaga keltirilgan. 1771- yilda K. Linney bu oʻsimlikka Ginkgo biloba L. deb ilmiy nom bergan. Koʻp mamlakatlarda, shu jumladan Oʻzbekistonda ham 1920- yildan boshlab manzarali oʻsimlik sifatida oʻstiriladi. Fargʻona davlat universiteti hududida 1980-yillarda professor S. Sahobiddinov tomonidan keltirilib ekilgan relik ginkgo biloba daraxti oʻstirilmoqda.

Ginkgo uchlamchi geologik davrlarda koʻp tarqalgan relik oʻsimliklaridan biri. U hozirgi vaqtda Yaponiyada va Xitoyning shimoliy sharqiy viloyatlarida yovvoyi holda oʻsadi. MDH davlatlarida esa Qrimda, Gruziyadagi va Kavkazning qora dengiz sohillaridagi xiyobon va botanika bogʻlarida oʻstiriladi,  $-30^{\circ}\text{C}$  gacha sovuqqa chidaydi.

Ginkgo urugʻidan va qalamchasidan, toʻnkasidan bachki novda chiqarib ham koʻkaradi. Kavkazning koʻp tumanlarida qator qilib ekilib, xushmanzara daraxt sifatida foydalaniladi. U oʻrtacha iqlimda, havosi sernam mamlakatlarda ekilsa, yaxshi oʻsadi. Ayrim joylarda 2000 yoshga kirgan tuplari uchraydi. Respublikamizda ginkgo Toshkentdagi botanika bogʻida va dendroparkda oʻstirilar edi, hozirda esa deyarli barcha viloyatlarda manzarali daraxt sifatida ekib oʻstirilmoqda.

E.L. Tishenko Rossiyaning janubiy qismida Ginkgo bilobaning vegetativ va urugʻidan koʻpaytirish xususiyatlarini oʻrgangan. Eng yaxshi natijalar yoz davrida issiqxonalar konteynerlarida ekib koʻpaytirish natijasida olingan.

G.K.Kiseleva, I.N.Nenko Krasnodar oʻlkasida Ginkgo bilobaning qurgʻoqchilikka chidamliligini oʻrganishgan. Qurgʻoqchilikka chidamliligini yozgi davrda oʻrganish jarayonida oʻsimliklarning morfologik strukturasi, tuzilishi, ularning bargi, barg tuzilishi, pigmentatsiyasining holati, suvni oʻtkazuvchanlik holati, bu oʻsimlikning iqlimga moslashuvchan ekanligini



ko'rsatdi. Ularning aniqlashicha mahalliyashtirilgan yuqori adaptatsion formalari qurg'oqchilikka chidamli ekan.

U.I Ruzmetov Ginkgo biloba daraxtiga mineral o'g'itlar va o'stiruvchi moddalarni ta'sirini o'rgangan. Ginkgo bilobani o'sishini va rivojlanishini ta'minlaydigan agrotexnik chora tadbirlar tizimi eng avval o'simlikni oziqlantirishda mineral o'g'itlarni qo'llash va sug'orish rejimiga rioya etishni talab etadi. Ginkgo bilobaga to'liq mineral o'g'itlar fonida o'stiruvchi modda gibberellini 100 mg/l me'yorida qo'llash o'simliklarning gunchalashi va gul hosil bo'lishiga ijobiy ta'sir qiladi hamda tuproqda asosiy ozuqa elementlarining maqbul rejimi hosil bo'ladi.



1-rasm. Farg'ona davlat universiteti hududida o'stirilayotgan Ginkgo biloba

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ручкина Н. Гинкго билоба - лекарство юрского периода// *Химии и жизнь*. 2018. № 11. с. 50 - 51.
2. Лапин П. И., Соколов С. Я. Род Ginkgo - Гинкго // Деревья и кустарники СССР : дикорастущие, культивируемые и перспективные для интродукции : в 6 т. — М. ; Л. : Изд-во АН СССР, 1949.
3. Tang CQ, Yang Y, Ohsawa M, Yi SR, Momohara A, Su WH, Wang HC, Zhang ZY, Peng MC, Wu ZL. Evidence for the persistence of wild Ginkgo biloba (Ginkgoaceae) populations in the Dalou Mountains, southwestern China (англ.) // American Journal of Botany. - Botanical Society of America, 2012. - Vol. 99, no. 8. P. 1408-1414

